XALQ DEPUTATLARI OHANGARON TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 1 - noyabr VI-90-104-10-134-K/23 Ohangaron tuman hokimligi

Ohangaron tumani mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining ortig'i bilan bajarilgan qismi hisobidan mablag' ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-813-son Qonuniga asosan, tuman mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining ortig'i bilan bajarilgan qismi hisobidan shakllangan qo'shimcha manbadan foydalanish yuzasidan Xalq deputatlari Ohangaron tumani Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimligi, Iqtisodiyot va moliya bo'limi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman mahalliy byudjetining qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' ajratish yuzasidan kiritilgan takliflari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy byudjetining qo'shimcha manbalari Xalq deputatlari tuman Kengashining qarorlari asosida yo'naltirilishi belgilab qo'yilsin.

3. Ohangaron tuman mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining ortig'i bilan bajarilgan qismi hisobidan mablag' ajratish 1-ilovaga muvofiq amalga oshirilsin.

4. Mablag' ajratilgan tashkilotlarga Ohangaron tumani mahalliy byudjetining qo'shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag'larning saflanishi va natijadorligi to'g'risidagi hisobotlarini Xalq deputatalari tuman Kengashga taqdim etib borishi vazifasi yuklatilsin.

5. Agar favqulodda vaziyatlarda va shunga o’xshash kechiktirib bo’lmaydigan choralar ko’rilishi talab etiladigan hollarda Xalq deputatalari tuman Kengashga pul mablag’i ajratilgandan so’ng hisobot berish sharti bilan tuman hokimining (farmoyishi) qarori asosida yo’naltirilishi belgilab qo’yilsin.

Bunda, favqulodda vaziyatlarda va shunga o’xshash kechiktirib bo’lmaydigan tadbirlarga ajratiladigan mablag’lar moliya yili mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi qo’shimcha, ko’zda tutilmagan xarajatlarni o’z vaqtida hamda uzluksiz moliyalashtirilishini ta’minlashga ajratiladigan qonun hujjatlari bilan byudjetdan ajratilishi belgilangan xarajatlar hisoblanadi.

6. Tuman Kengashining qarori qabul qilingandan so’ng hokimlikning mablag’ ajratish to’g’risidagi qarorlari (farmoyishlari)ga byudjet intizomini ta’minlash maqsadida ortiqcha qarzdorliklarga yo’l qo’ymaslik uchun qo’shimcha manbalar hisobidan mablag’lar ajratish yuzasidan taklif va xulosalar Iqtisodiyot va moliya bo’limi tomonidan tuman hokimiga kiritiladi.

7. Tuman mahalliy byudjetining qo’shimcha manbalari tuman byudjeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish xarajatlari uchun yo’naltirilishiga yo’l qo’yilmaydi.

8. Qo’shimcha manbalar hisobidan mablag’lar ajratilgan tashkilotlar mablag’lardan foydalanish yakuni bilan Iqtisodiyot va moliya bo’limiga ulardan foydalanilishi bo’yicha hisobotlar taqdim etadilar.

Bunda ajratilgan mablag’larning foydalanilmasdan qolgan qismini kamaytirish yuzasidan mablag’ oluvchilar tomonidan tegishli murojaatlar kiritiladi. O’z navbatida, Iqtisodiyot va moliya bo’limi tegishli farmoyishlarga o’zgartirishlar kiritish yuzasidan tuman hokimining qarori (farmoyishi) loyihasini tayyorlaydi.

9. Tuman mahalliy byudjetining qo’shimcha manbalaridan mablag’ oluvchilarning rahbar va mas’ul xodimlari ajratilgan mablag’lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag’larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar hisoblanadilar.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi (A.Ibragimov) hamda tuman hokimining birinchi o’rinbosari (Sh.Azamatov) zimmalariga yuklatilsin.

11. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Ohangaron tumani Kengashi raisi vazifasini vaqtincha bajaruvchi



Biydayev. S.

Xalq deputatlari Ohangaron tuman
Kengashining
2023-yil 1-noyabrdagi
VI-90-104-10-134-K/23-son qaroriga
1-ilova

Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarga ajratilishishi ko‘zda tutilgan mablag‘lar to‘g‘risida XARAJATLAR RO‘YXATI

T/r	Xarajatlar nomi (maqsadi)	Ajratilishi ko‘zda tutilayotgan mablag‘
1	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi (30%)	Shakllangan mablag'ning 30%
2	Yoshlar daftari jamg'armasi (15% gacha)	Shakllangan mablag'ning 15% gacha
3	Ayollar daftari jamg'armasi	Shakllangan mablag'ning 15% gacha
4	Saxovat va ko'mak	hisob-kitobga ko‘ra
5	Tuman hokimligi hamda qonun va normativ hujjatlarda taqiqlanmagan tashkilot xodimlarini rag‘batlantirish (Xalq deputatlari tuman kengashi kotibiyati, iqtisodiyot va moliya bo`limi, G`aznachilik bo`limi, Investitsiya bo`limi, Davlat soliq inspeksiyasi, MFY raislari)	hisob-kitobga ko‘ra
6	"Ozodlik" MFYda "Obod honadon, obod ko`cha va obod mahalla" dasturini amalga oshirish xarajatlari	hisob-kitobga ko‘ra
7	Kuz-qish mavsumi uchun oziq-ovqat zahirasini yaratish uchun "Oziq-ovqat zahira jamg`armasi"ga mablag` ajratish	300.0 mln so`m
8	Byudjet tashkilotlarining kommunal qarzdorligini qoplash	hisob-kitobga ko‘ra
9	Kuz-qish mavsumini betalofat o`tkazish va favqulotda xolatlarni oldini olish maqsadida ijtimoiy soha ob'ektlarini va aholi honadonlarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash xarajatlari	hisob-kitobga ko‘ra
10	Byudjet tashkilotlarining moddiy texnika bazasini mustaxkamlash	hisob-kitobga ko‘ra
11	Sud qaroriga asosan yuzaga kelgan xarajatlarni qoplash	hisob-kitobga ko‘ra
12	"Ohangaron hayoti" gazetasiga ijtimoiy obuna xarajatlari	50.0 mln so`m
13	Favqulodda vaziyatlarda va shunga o’xshash kechiktirib bo’lmaydigan tadbir xarajatlari	hisob-kitobga ko‘ra
14	Xukumat qarori va yuqori turuvchi organlarning topshiriqlariga asosan ko‘zda tutilmagan xarajatlar	hisob-kitobga ko‘ra
15	Tuman hokimligi saqlab turish xarajatlari uchun	hisob-kitobga ko‘ra